



DIFFERENSIAL TA'LIM MAZMUNI VA UNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Saparboyev J.Yu.

Fan va texnologiyalar universiteti “Aniq fanlar” kafedrasida katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: differensial ta'lim, intellektual rivojlanishi, IQ test, tafakkur, temperament, layoqati, qobiliyati.

Ключевые слова: дифференцированное обучение, интеллектуальное развитие, тестирование IQ, мышления, темперамента, способностей, способностей.

Keywords: differentiated learning, intellectual development, testing of IQ, thinking, temperament, abilities, abilities.

РЕЗЮМЕ

Differensial ta'lim o'quv jarayoni tashkiliy shakllaridan biri bo'lib, bunday ta'lim jarayonida o'quvchilar ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratiladi va shunga ko'ra o'quv jarayoni tashkil etiladi.

РЕЗЮМЕ

Дифференцированное обучение - одна из организационных форм образовательного процесса, при которой обучающиеся делятся на группы по определенным признакам и соответствующим образом организуется образовательный процесс.

SUMMARY

Differentiated learning is one of the organizational forms of the educational process, in which students are divided into groups according to certain characteristics and the educational process is organized accordingly.

Kirish Jahonda va mamlakatimizda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy kuch sifatida e'tirof etilib, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etish, pedagogik diagnostika metodlaridan optimal foydalanish strategiyalari samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish orqali tahsil oluvchilar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini





yaratish aloxida dolzarblik kasb etmokda. Bu esa oliy ta'lim tizimida o'quvchilarni mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlash sifatini takomillashtirishni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Mazkur muammo yechimiga differensial yondashuv asosida ta'limni tashkil qilishning ilmiy, didaktik va texnologik jihatlarini o'rganish muhimdir.

Differensial ta'lim o'quv jarayoni tashkiliy shakllaridan biri bo'lib, bunday ta'lim jarayonida o'quvchilar ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratiladi va shunga ko'ra o'quv jarayoni tashkil etiladi. Differensiatsiya lotin tilidan olingan bo'lib, "differentia"- farq, tabaqa ma'nolarini anglatadi.

Differensiallashgan ta'limning asosiy belgilaridan biri bu o'quvchilarning turli xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratish hamda o'quv materialini taqdim etishda har bir guruhning ushbu jihatlarini inobatga olgan holda moslashtirish, to'ldirish yoki optimallashtirishdan iboratdir.

Differensial ta'limda ta'lim oluvchilar quyidagi xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtiriladi:

1. Intellektual rivojlanishiga ko'ra (IQ test bilan aniqlanadi).
2. Tafakkur turiga ko'ra.
3. Temperamentiga ko'ra.
4. Qiziqishlariga ko'ra.
5. Layoqati va qobiliyatiga ko'ra.
6. Tanlagan mutaxassisligiga ko'ra va h.k.

Yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra ta'lim oluvchilarni tabaqalashtirish uchun diagnostik tadbirlar o'tkaziladi va natijalarga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Masalan, intellektual rivojlanishiga ko'ra uch darajaga ajratiladi:

- yuqori darajaga IQ test natijalari bo'yicha 20 baldan 14-20 ball to'plagan o'quvchilar kiritiladi. Bunday o'quvchilar faol va nostandart, ijodiy fikrlash tarziga, ixtiyoriy diqqat hamda xotiraga ega bo'ladilar.

- o'rta darajaga IQ test natijalari bo'yicha 20 baldan 8-13 ball to'plagan o'quvchilar kiritiladi. Bunday o'quvchilar o'rta darajada analitik fikrlash tarziga ega bo'ladilar, o'quv materialini takrorlashlar natijasida o'zlashtiradilar.

- quyi darajaga IQ test natijalari bo'yicha 20 baldan 8 baldan past ball to'plagan o'quvchilar kiritiladi. Bunday o'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyaning mavjud emasligi, tez charchash, chetdan yordam kutish holatlari kuzatiladi. Bunday o'quvchilarga, odatda, o'qituvchi tomonidan bilimlarni o'zlashtirish algoritmi ham berib boriladi.

Ta'lim oluvchilarni guruhlariga tabaqalashtirish shartli xarakterda bo'lib, o'zlashtirishiga ko'ra ular yuqoriroq darajaga ko'tarilishlari mumkin.





Intellectual darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilarni guruhlarga ajratish o'qituvchidan o'quv materiallarini turlicha shakl va metodlardan foydalangan holda taqdim etishni talab etadi. Ya'ni, o'quv materiali odatda o'rta darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanadi. O'qituvchining vazifasi ushbu materialni o'zlashtirishlari uchun yuqori va quyida darajada intellektual salohiyatga ega o'quvchilar uchun qo'shimcha materiallar ishlab chiqishdan iborat. Ya'ni, yuqori darajada o'zlashtiruvchilar guruhi uchun qo'shimcha topshiriqlar tizimi tayyorlanadi. Past darajada o'zlashtiruvchilar uchun esa ushbu o'quv materialini o'zlashtirishga yordam beruvchi qo'shimcha algoritmlar, eslatmalar, tavsiyalar tizimi ishlab chiqiladi.

O'quvchilarning psixologik xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirishda anglash jarayonidagi o'ziga xos psixologik xususiyatlar inobatga olinadi. Masalan, topshiriqlarni bajarishda namoyon bo'ladigan xotirasi, tafakkuri, diqqati kabilar. Differensial ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning faqat individual tipologik xususiyatlarini aniqlash, shunga ko'ra guruhlarga ajratish emas, balki topshiriqlar tizimi asosida ularning rivojlanishdan orqada bo'lgan psixologik xususiyatlarini takomillashtirish, zaruriy darajaga ko'tarishdan iborat.

Zamonaviy pedagogikada ta'limni texnologiyalashtirish muammosi chuqur kirib borayotganligini inobatga olgan holda, differensial ta'lim texnologiyasi tushunchasiga ham to'xtalib o'tamiz. Differensial ta'lim texnologiyasi o'quv jarayoni maqsadiga erishish uchun o'qituvchi, tabaqalashtirilgan o'quvchilar guruhlari, ta'lim vositalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini loyihalashtirish, tashkil etish va boshqarish tizimidir. Ta'lim texnologiyasining ushbu turi pedagogik jarayonda ikkita muhim vazifani bajaradi:

1. O'quvchilarning imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida ta'lim berish.
2. O'qitish jarayonini turli xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirilgan o'quvchilar guruhiga moslashtirish.

Differensial ta'lim quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- ✓ Ta'lim oluvchilarning aniq akademik yoki psixologik xususiyatlariga ko'ra tabaqalashganligi;
- ✓ O'quvchilar guruhining dinamik xarakterda ekanligi;
- ✓ O'quv materiallarining variativligi va adaptivligi;
- ✓ Differensial ta'limning individualligi;
- ✓ Ta'limning demokratik va insonparvar xarakterda ekanligi.
- ✓ Differensial ta'lim jarayoni individual va guruhli shakllarda tashkil etiladi.
- ✓ Differensial ta'lim umumiy holda quyidagi afzalliklarga ega:





- ✓ Bilim oluvchilarni rivojlantirish uchun ularning individual xususiyatlari va qiziqishlariga ko‘ra optimal shart-sharoit yaratilganligi;
- ✓ O‘quv jarayonining samaradorligi;
- ✓ O‘quvchilarning pedagogik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi;
- ✓ Turli darajada o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning o‘z kuchi va muvaffaqiyatiga ishonchning mavjudligi.

Xulosa sifatida ta’lim jarayonini differensiallashtirish o‘qituvchiga bir qancha qo‘shimcha vazifalar yuklatish bilan bir qatorda, uning faoliyati uchun bir qator afzalliklarga ham ega. Birinchidan, o‘qituvchi yuqori darajadagi va past darajadagi o‘quvchilar bilan ishlashning optimal metodikasiga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, muntazam olib boriladigan diagnostik tadbirlar o‘qituvchiga faoliyat natijasini ob‘ektiv baholash imkonini beradi. O‘quvchilar esa differensial ta’lim natijasida individual yondashuv asosida ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, kuchli intellektual salohiyatga ega bo‘lgan o‘quvchilarda yangi bilimlarni olishga bo‘lgan motivatsiya kuchayadi, ish tempi kuchayadi, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun muvaffaqiyatga intilish hissi paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodmonova S.M. “Differensial ta’lim mazmuni va uning pedagogik imkoniyatlari”, *Science Shine International scientific journal*.
2. Toshboyeva N., Tursunova N. “Amaliy dasturlar paketi yordamida talabalarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirish” Namangan davlat universiteti. ilmiy axborotnomasi, [2024-11], ISSN:2181-1458, 39-41.
3. Muxsinova K.S. “Differensial yondashuv asosida talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari” “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
4. Toshboeva N.Y. (2021). Geometrik muammoli masalalar asosida talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 3), 183-188.
5. Eshqorayev Q.A., Toshboyeva N.Y. Kompleks sonlarni kasbiy faoliyatda qo‘llanilishi. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирий, Илимий-методикалык журнал, Nukus-2025-у. 2/2-son
6. Khasan Eshankulov¹, Umida Imamova², Dilafruz Kenjabaeva², Kakhramon Eshkoraev^{2*}, Alim Axmedov², and Dilnoza Bobokulova² // Optimizing mash threshing quality through drum rotation frequency adjustment, E3S Web of Conferences 627, 02014 (2025), GEOTECH-2025





7. N.Toshboyeva F.Isroilova “Informatikada texnologiya va uning turlari haqida”, Uzluksiz ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari. JDPU 2022 y.
8. A.F.Xamrayeva “Oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni”, Academic Research in Educational Sciences, VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021.
9. Эшқораев К.А. Вербальный интеллект как фактор успеха // Социосфера. – Самарканд, 2021. – № 4. – С. 92-95. ISSN 2078-7081. ISSN 20787081.
10. Eshqorayev Q.A. Masofaviy ta’lim modellari va uning xususiyatlari// “Mug‘allim ham uzliksiz bilimlendiriu”. Ilmiy-metodik jurnal. – Nukus, 2022. – № 1/1. – B. 15-19. ISSN 2181-7138
11. Eshqorayev Q.A. Verbal intellekt ta’lim jarayonini samarali tashkil etish omili sifatida // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – Buxoro, 2022. – № 5. – B. 379-383. ISSN 2181-1717 (E), ISSN 2181-1709 (P).
12. Eshqorayev Q.A. Informatika darslarida talabalarining mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi masalalar // “Mug‘allim ham uzliksiz bilimlendiriu”. Ilmiy-metodik jurnal. – Nukus, 2022. – № 3/1.– B. 109-111. ISSN 2181-7138.
13. Эшқораев К.А. Определение уровня вербального интеллекта с помощью заданий /“Цифровизация в обучении гуманитарных дисциплин в медицинском высшем образовании” сборник научных трудов Международной научнопрактической конференции. ТГСИ. – Ташкент, 2022. 5 марта. – С. 299-301.
14. Эшқораев К.А. Организация тренировок с использованием интегративного образования. Материалы Международной конференции по современной науке и научным исследованиям, 1 (3), - С. 220–222. ISSN (E) 2835 – 3730.
15. Eshqorayev Q.A. Pedagogik ta’lim klasterining strategik yo‘nalishlari/ “Zamonaviy taraqqiyotida ilm-fan va madaniyatning o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, 2022. 15 avgust. – B. 50-53.

